

## DINIY USLUBDA RANGLARNING RAMZIY IFODASI

*TerDU talabasi*

**Abdusalomova Sevinch G'anisher qizi**

*Ilmiy rahbar: D.Ergasheva*

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada diniy nutq va matnning funktsional roli haqida asosiy ma'lumotlar keltirilgan va o'zbek tilining stilistik tizimi bòyicha qisqacha ma'lumotlar berib o'tilgan. O'tkazilgan tadqiqot natijalari asosida tilshunos olimlar tomonidan o'zbek tilining hali yoritilmagan diniy uslub va uning o'rganish obyekti ranglarning diniy uslubdagi ramziy ma'nolari izohlangan.*

**Kalit so'zlar:** *Uslub, diniy matn, leksik-frazeologik, grammatik xususiyat, diniy nutq, ekstralingvistik omillar, fonetik jihat, leksik-stilistik jihat, ekspressiv emotsional jihat.*

Uslub – tilning inson faoliyatining muayyan sohasi bilan bog'liq vazifalariga ko'ra ajratilishi. Adabiy tilning quyidagi vazifaviy uslublari mavjud: 1) so'zlashuv uslubi; 2) rasmiy uslub; 3) ilmiy uslub; 4) publitsistik uslub; 5) badiiy uslub.[1.232] Yaqin yillarda tilimizda yangi oltinchi uslub ya'ni diniy uslub yoritib berildi. Ma'lumki, diniy matn uslubi o'zbek tili funktsional uslublarning bir ko'rinishi va u diniy-ma'rifiy soha vakillari tilida amal qiladigan alohida leksik-frazeologik, grammatik xususiyatlarga ega. Bu xususiyatlar dissertatsiyada ilmiy, rasmiy, publitsistik, badiiy va so'zlashuv uslublari bilan taqqoslangan holda yoritib berildi. Diniy matnlarni kuzatish unda o'zbek tilida amalda bo'lgan boshqa uslublarning elementlari ham uchrab turishligini ko'rsatdi. Ayni paytda, ular muayyan farqlarga ham ega. Masalan, Qur'on oyatlari va muborak hadislariga tayanilishi, undov so'z va gaplar, ularning murojaat shakllari, ko'chirma gaplarning hamda rivoyat qilinadi, deyiladi, deydilar, so'radi (lar) fe'l shakllari faolligi ularni ilmiy matnlar uslubidan farqlasa, aniqlikka intilish, fikrni sodda, aniq va tushunarli tilda bayon qilish, emotsional-ekspressiv bo'yoqqa ega bo'lgan so'zlarning ishlatilishi me'yor sanalmasligi bu ikki matnning o'xshash jihatlari bo'lsa, namoz, azon aytilishi, nikohning rasmiylashtirilishi, kundalik besh vaqt namozning, janoza, taroveh, juma, hayit namozlarining o'qilishi yoki umuman, va'zxonlik, qiroatxonlik kabi ibodatlar, diniy anjumanlar arabiy matn, oyat va duolarasosida ijro etilishi ularni o'zbek tilining rasmiy matnlaridan farqlaydi. Diniy uslubning o'rganilish obyekti sifatida ranglar tasnifi va ularning ramziy ifodalarini olish mumkin. [6.198]

Ranglar Alloh taoloning bizga bergan ulug' va rohatbaxsh ne'matlaridan sanaladi. Qur'oni karimning bir qator oyatlarida har xil ranglar zikr qilingan bo'lib, turli ma'nolarni ifoda etgan.

Qur'oni karimda sakkiz xil rang zikr qilingan:

1. Sariq
2. Oq
3. Qora
4. Yashil
5. Ko'k
6. Qizil
7. Qirmizi
8. Yam-yashil

Sariq rang Qur'oni karimning 5 oyatida 5 marta zikr etilgan:

1. "Baqara" surasi, 69-oyat
2. "Rum" surasi, 51-oyat
3. "Zumar" surasi, 21-oyat
4. "Hadid" surasi, 20-oyat
5. "Mursalat" surasi, 33-oyat

Sariq rang Qur'oni karimda quyidagi ma'nolarda qo'llanilgan:

1. Hayvonga nisbatan ishlatilganda "Sariq rang insonga surur bag'ishlaydi", degan ma'noda qo'llanilgan.
2. Shamolga nisbatan ishlatilganda "buzish, vayron qilish" ma'nolarini anglatadi.
3. Dehqonchilikka nisbatan qo'llanilganda "qurib qolib, yo'q bo'lish" kabi ma'nolarni bildiradi.

Payg'ambarimiz Muhammad sallolohu alayhi vasallam sariq rangni xush ko'rmaganlar. Chunki, sariq rang dinimizda xiyonat va ikkiyuzlamachilik ramziidir. [2]

Oq rang Qur'oni karimningn 12 oyatida 12 marta zikr etilgan:

1. "Baqara" surasi, 187-oyat
2. "Oli Imron" surasi, 106-oyat
3. "Oli Imron" surasi, 107-oyat
4. "A'rof" surasi, 158-oyat
5. "Yusuf" surasi, 84-oyat
6. "Toha" surasi, 22-oyat
7. "Shuaro" surasi, 33-oyat
8. "Nahl" surasi, 12-oyat
9. "Qasas" surasi, 32-oyat
10. "Fotir" surasi, 27-oyat
11. "Soffot" surasi, 46-oyat
12. "Soffot" surasi, 49-oyat

Qora rang Qur'oni karimning 7 oyatida 8 marta zikr qilingan:

1. "Baqara" surasi, 187-oyat
2. "Oli Imron" surasi, 106-oyat
3. "Oli Imron" surasi, 106-oyat
4. "Nahl" surasi, 58-oyat
5. "Fotir" surasi, 27-oyat
6. "Zumar" surasi, 60-oyat
7. "Zuxruf" surasi, 17-oyat
8. "A'lo" surasi, 33-oyat

Qur'oni karimda qora rang quyidagi ma'nolarda qo'llanilgan:

1. Tun zulmati
2. Jahannam ahlining rangi
3. Mahzunlik, g'am-tashvish
4. Qurigan va yo'q bo'lgan narsalar
5. Ayrim tog'larning rangi

"Payg'ambarlar tarixi" kitobidagi Solih alayhissalom qissasida Savmud qavmi Solih alayhissalomni masxara qilib, qachon azobga duchor bo'lishini so'radilar. Solih alayhissalom aytdilar: "Buning birinchi alomati, birinchi kun yuzlaringiz sarg'aygan holda tong orttirasiz! Ikkinchi kuni esa yuzingiz qizargan holda uyg'onasiz! Uchinchi kuni esa yuzlaringiz qoraygan holda tong orttirasiz!" Bunda ko'rishimiz mumkinki, dinimizda qora rang Jahannam ahlining rangi ma'nosida kelayapti.

Yashil rang Qur'oni karimning 8 oyatida 8 marta zikr qilingan:

1. "An'om" surasi, 99-oyat
2. "Yusuf" surasi, 43-oyat
3. "Yusuf" surasi, 46-oyat
4. "Kahf" surasi, 31-oyat
5. "Haj" surasi, 63-oyat
6. "Yasin" surasi, 80-oyat
7. "Rahmon" surasi, 76-oyat
8. "Inson" surasi, 21-oyat

Qur'oni karimda yashil rang quyidagi ma'nolarda qo'llanilgan:

1. Yomg'irdan keyingi daraxt, ekinzor va yerning rangi
2. Jannat ahli libosining rangi
3. Jannatdagi mangu yoshli bolalar libosining rangi
4. Jannat ahliga beriladigan yostiqlar jildining rangi

Ma'lumotlarda keltirilishicha, yashil rang Payg'ambarimiz Muhammad s.a.v ning eng sevimli ranglari bo'lgan. Shahidlarning ruhi bu dunyoda yashil rang qushlarda bo'lishi ham qayd etib o'tilgan.

Ko'k rang Qur'oni karimning 1 oyatida 1 marta zikr qilingan:

- "Toha" surasi, 102-oyat

Qur'oni karimda ko'k rang quyidagi ma'nolarda qo'llanilgan:

• Mahshar maydonidagi imonsizlar yuzining rangi. Ya'ni Qiyomatning dahshatidan ularning yuzi ko'karib ketadi.

- Qo'rquv, dahshat va hadik rangi  $يَوْمَ يُفَخُّفُ الصُّورُ وَتَحْشُرُ الْمُجْرِمِينَ وَمِنْ ذُرِّيَّتِكَ$

U kun surga puf kasallik kundir. O'sha kunda jinoyatchilarni kuzlari ko'k bo'lgan holda to'plarmiz. (Qiyomatning kelganini aytilgan, sur chalinadi. O'sha qiyomat kunida kofirlar-jinoyatchilarni Alloh taolo qo'rquvdan yuzlari qorayib, ko'zlari ko'karib ketgan hollarida mahsharga jamlaydi.) ("Toha" surasi 102-oyat).

Yam-yashil rang Qur'oni karimning 1 oyatida 1 marta zikr qilingan:

- "Rahmon" surasi, 64-oyat

Qur'oni karimda yam-yashil rang quyidagi ma'noda qo'llanilgan:

• Jannatdagi yashil rangning qora rangga moyil bo'lgan holati. Ya'ni jannatdagi bog'-u rog'lar shu darajada yashilki, qora rangga moyil bo'lib, yam-yashil tus oladi.

Qirmizi rang Qur'oni karimning 1 oyatida 1 marta zikr qilingan:

- "Rahmon" surasi, 37-oyat

Qur'oni karimda qirmizi rang quyidagi ma'noda qo'llanilgan:

- Osmonning Qiyomat kunidagi rangi

$فَتَّالْسَّمَاءُ فَكَانَتْ نَوْرًا كَالدَّهَانِ فَإِذَا آنَسَ$  Osmony yorilib, qirmizi moyga aylangan vaqtda...("Rahmon" surasi 37-oyat) Bu yerda qiyomat kuni rangi ma'nosida kelmoqda.

Qizil rang Qur'oni karimning 1 oyatida 1 marta zikr qilingan:

- "Fotir" surasi, 27-oyat

Qur'oni karimda qizil rang quyidagi ma'nolarda qo'llanilgan:

- Ayrim tog'larning rangi
- Daraxtlardagi mevalar rangi[5].

Bu kabi tahlillarni davom ettiradigan bo'lsak juda ko'plab misollarni ko'rishimiz mumkin. Sababi bu uslub, ya'ni diniy uslub stilistika sohasida hali to'laligicha o'rganilib ulgurilmagan sohalardan biri hisoblanadi. Shu sababli ham bu borada juda ko'plab ikkilanishlar, katta-kichik muammolar yuzaga kelishi mumkin. Lekin bu kabi noqulayliklarning oldini olish yo'llari maxsus olimlar, tilahunoslar tomonidan tadqiq qilinmoqda. Bu soha, bu uslub tilshunosligimizga endigina kirib kelgani ham shuni ko'rsatib beradiki, neologizmlarning tilimizga

singishi osonlikcha bo'lmaydi. Doimo to'siqlar bo'lishini tabiiy hol deb hisoblashimiz kerak bo'ladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Amonturdieva Sh. Лексический пласт узбекских религиозных текстов // International Scientific Journal ISJ Theoretical Applied Science – Philadelphia USA, 2020. -R.14-17. (№2. Impact Factor: 4,971)
2. Amonturdieva Sh. O'zbekcha diniy matn: funktsional-stilistik tadqiq muammolari // Samarqand davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi – Samarqand, 2019. -№ 2. –B.55-57. (10.00.00 №14).
3. Amonturdieva Sh. O'zbek tilshunosligida matni funktsional-uslubiy jihatdan o'rganish masalasi // O'zbek tilshunosligining dolzarb masalalari. Respublika ilmiy-nazariy konferentsiyasi materiallari – Toshkent, 2019. –B. 64-69.
4. Amonturdieva Sh. O'zbekcha diniy matnlarning leksikasiga oid ayrim mulohazalar // Termiz davlat universiteti professor-o'qituvchilarining 2018 yilgi ilmiy tadqiqot ishlari yakuniga bag'ishlangan an'anaviy ilmiy-amaliy konfrentsiyasi materillari. – Termiz, 2018. - B. 273-282.
5. Muftiy Abdulmatin. Al-Amsal va al-alvan fi al-Qur'an al-karim. – Karachi: Maktabai Umar faruq, 2010. – B. 199-200.
6. O'zbek tili stilistikayei, T., 1983; Qo'ng'urov R., Begmatov E., Tojiyev Yo., Nutqmadaniyati va uslubiyatasoslari. T., 1992.
7. Ergasheva D.A. Odil Yoqubov asarlarida inson ruhiy holati ifodalanishining lisoniy manzarasi // Сўз санъати халқаро журнали. –Тошкент, 2020. №1, 2-jild. ISSN: 21819297 Doi Journal 10.26739/2181-9297. – B. 99-103. (10.00.00 № 31)
5. Юсупова, О. (2023). DIFFERENT CLASSIFICATION OF FAIRYTALE DISCOURSE IN WORLD AND UZBEK FOLKLORE. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 3(8).